

QISHLOQ XO'JALIGI YERLAR HISOBI NATIJALARI ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIK MASALALARI

*Tashbayeva Hulkaroy Xolmurod qizi – q.x.f.f.d. (PhD),
“O‘zdaverloyiha” DILI doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqola qishloq xo'jaligi yerlari, ularning mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o'rni, shu bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi yerlari hisobini to'g'ri, aniq va doimiy yurutishning iqtisodiyotga ta'siri haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'z: qishloq xo'jaligi yerlari, iqtisodiy samaradorlik, yer hisobi, oziq-ovqat xavfsizligi, iqlim o'zgarishi.

Kirish. Qishloq xo'jaligining asosiy vazifasi, bu - ishlab chiqarishning barqaror ishlashini ta'minlash va iqtisodiy samaradorligini oshirib borish asosida mamlakat aholisining oziq-ovqatga, sanoatning esa xom - ashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirishdir. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida 20 mln gektardan ortiq, shu jumladan 3,2 mln gektar sug'oriladigan ekin yer maydonlaridan foydalanib, aholining ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur xom ashyo yetishtirilmoqda. Sug'oriladigan maydonlarning unumdorligini oshirish, meliorativ holati va suv ta'minotini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari doirasida keng ko'lamli irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Natijada 2008 - 2017-yillar mobaynida 1,7 mln gektardan ortiq sug'oriladigan maydonlarning suv ta'minoti hamda 2,5 mln gektar maydonlarning meliorativ holatining yaxshilanishiga erishildi. Biroq, global iqlim o'zgarishi natijasida so'nggi yillarda davriy ravishda kuzatilayotgan suv tanqisligi va ichki irrigatsiya tarmoqlarining asosiy qismi yaroqsiz holatga





kelganligi sug'oriladigan ekin yerlarining meliorativ holati yomonlashishiga va yillar davomida foydalanishdan chiqib ketishiga olib kelgan.

Respublikada yillar davomida irrigatsiya va melioratsiya holati yomonlashuvi natijasida foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni bosqichma-bosqich qayta foydalanishga kiritish, yer osti suv zaxiralaridan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda ichki irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish orqali suv yo'qotilishini kamaytirish, shuningdek, bu ishlarda salohiyatli investorlar ishtirokini ta'minlash maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tarmog'i muhim ahamiyatga ega. Chunki respublikamiz aholisining 48,4 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi va ularning turmush farovonligi mazkur tarmoq rivoji bilan uzviy bog'liqdir. Bundan tashqari mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida ham qishloq xo'jaligi tarmog'i sezilarli salmoqqa ega. Qishloq xo'jaligi tarmog'i mamlakatimiz agrosanoat majmuasining muhim bo'g'ini bo'lib, uning quyidagi ahamiyati mavjud:

Birinchidan, u aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda mazkur tarmoqning o'rini beqiyosdir, chunki aholi iste'mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari asosan qishloq xo'jaligi tarmog'ida yetishtiriladi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi yengil va oziq-ovqat sanoati uchun xom ashyoning asosiy qismini yetkazib beradi. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanish darajasi sanoat ushbu sohalarining ishlab chiqarish miqdori va samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi mamlakat og'ir sanoatining rivojlanish sur'atiga va darajasiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligi tarmog'i mehnat resurslarini ish bilan ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 50 foizga yaqini qishloq joylarda istiqomat qiladi.




Beshinchidan, qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi roli yana shu bilan aniqlanadiki, u mamlakatning iqtisodiy salohiyatini belgilab beruvchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda ham sezilarli salmoqqa ega.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligi yerlaridan oqilona va samarali foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Bunda qishloq xo'jaligi yer maydonlarini hisobini to'g'ri yuritish, ularni to'g'ri taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi va mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ida turli xildagi mahsulotlar yetishtiriladi, ishlar hamda xizmatlar bajariladi va ular ehtiyojlamini qondirish maqsadida taqsimlanadi. Ushbu taqsimlanishlar yer hisobida yaqqol ko'rinib turishi, doimiy yangilanib borishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish tizimi takomillashtirilishi, sohada ishlab chiqarishni bozor munosabatlariga mos rivojlanishiga zamin yaratadi.

Respublikada qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlarining soni fermer xo'jaliklari bilan birgalikda olganda, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 120 942 ta bo'lib, ularga biriktirib berilgan yerlarning umumiy yer maydoni 26 232,3 ming gektarni, shu jumladan qishloq xo'jalik yer turlari maydoni 21 206,0 ming gektarni, shundan 3 693,6 ming gektari sug'oriladigan yerlarni tashkil qiladi.





1-rasm. *Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha sug'oriladigan qishloq xo'jalik yer turlarining taqsimlanishi. (% hisobida)*

Xulosa. O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tarmog'i muhim ahamiyatga ega. U aholini oziq-ovqat mahsulotlari, qayta ishlash sanoatini esa xomashyo bilan ta'minlaydi. Kelajakda mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish uchun qishloq xo'jaligini rivojlantirish obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi yerlari asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lganligi sababli va ularning aniq hisobini bilmay turib iqtisodiy samaradorlikka erishib bo'lmaydi. Bu borada olib borilayotgan islohotlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5742-sonli "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni, 2019 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to'g'risida MILLIY HISOBOT. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadast agentligi Davlat kadastrlar palatasi, 2024.
3. Nurmatov N.J., Ro'ziyev O.A., Gulmatov J.Q., Berdiyev S.R. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti - (Q'quv qo'lanma), Toshkent, 2011, 304 bet.
4. Turayev R.A., Tashbayeva H.X. Yer hisobini yuritishning qishloq xo'jaligida ahamiyati // "O'zbekiston zamini" ilmiy-amaliy va innovatsion jurnali. Toshkent: -"O'ZDAVYERLOYIHA" DILI, 2020. - № 2. –B. 17-19.